



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

NUTQ BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA O'RGATISH KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Imomova Madina Azamat qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali
Logopediya yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi, ayniqsa nutqida nuqsonlari va dizartriya belgilari kuzatiladigan bolalarni savod o'rganishga tayyorlash masalalari yoritilgan. Maqolada bolalarning jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishida sensor-motor funksiyalar, fonematik idrok, fazoviy gnozis, ko'ruv va eshituv idrokining o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Serebral falaj va dizartriya holatlarida uchraydigan motorik, nutqiy va intellektual kamchiliklarning savod o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishga tayyorlash bosqichlari, tovush-bo'g'in tahlili va sintezi, didaktik o'yinlar hamda maxsus metodik mashqlar tizimi asoslab berilgan. Maqolada "o" tovushi va harfini o'rgatishga bag'ishlangan mashg'ulot ishlanmasi misolida korreksion-ta'limiy ishlarning amaliy yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, nutq nuqsonlari, dizartriya, serebral falaj, fonematik idrok, savodga tayyorlash, tovush va bo'g'in tahlili, ko'ruv-motor koordinatsiyasi, maxsus metodika, logopedik ishlar.

DEVELOPING LITERACY LEARNING COMPETENCE IN CHILDREN WITH SPEECH DISORDERS

Imomova Madina Azamat qizi — 1st-year Master's student in Speech Therapy (Logopedics),
Samarkand Branch of Tashkent International Kimyo University.

Annotation.

This article discusses the issues of preparing preschool children, especially those with speech defects and dysarthria, for literacy training. The study scientifically analyzes the role of sensorimotor functions, phonemic perception, spatial gnosys, visual and auditory perception in the physical, mental and spiritual development of children. The negative impact of motor, speech and intellectual deficiencies in cerebral palsy and dysarthria on the process of literacy acquisition is revealed. Also, the stages of preparing children with speech defects for literacy training, sound-syllable analysis and synthesis, didactic games and a system of special methodological exercises are substantiated. The article highlights practical areas of correctional and educational work on the example of developing an activity dedicated to teaching the sound and letter "o".

Keywords: preschool education, speech disorders, dysarthria, cerebral palsy, phonemic perception, literacy preparation, sound and syllable analysis, visual-motor coordination, special methods, speech therapy work.

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ С РЕЧЕВЫМИ НАРУШЕНИЯМИ

Имамова Мадина Азамат кизи — магистрант 1-го курса по направлению «Логопедия»,
Самаркандский филиал Ташкентского международного Кимё университета.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы подготовки детей дошкольного возраста, особенно детей с нарушениями речи и дизартрией, к обучению грамоте. В исследовании

научно анализируется роль сенсомоторных функций, фонемного восприятия, пространственного гнозиса, зрительного и слухового восприятия в физическом, умственном и духовном развитии детей. Выявлено негативное влияние двигательных, речевых и интеллектуальных нарушений при церебральном параличе и дизартрии на процесс освоения грамоты. Также обоснованы этапы подготовки детей с нарушениями речи к обучению грамоте, звуко-слоговой анализ и синтез, дидактические игры и система специальных методических упражнений. В статье освещены практические направления коррекционно-воспитательной работы на примере разработки деятельности, посвященной обучению звуку и букве «о».

Ключевые слова: дошкольное образование, нарушения речи, дизартрия, церебральный паралич, фонемное восприятие, подготовка к грамоте, звуко-слоговой анализ, зрительно-моторная координация, специальные методы, логопедическая работа.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim – tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoni, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishda, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga ya'ni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Patologik tonik reflekslar hamda qo'llardagi falajlik *ko'ruv-motor* koordinasiyasining rivojlanmaganligiga olib keladi. Fazoviy gnozisning shakllanishidagi buzilishlar bilan birgalikda bu shaklni idrok qila olish ko'nikmasini shakllanishini hamda fazoda yassi va muallaq hajmlarni farqlashni qiyinlashtiradi. Bunda shuningdek, shakl chizmasining rivojlanishi ham buziladi. Bolalarda “chap” va “o'ng” tushunchalarining shakllanishi ham kechikadi. Bularning barini kinestetik hissiyotlarning yetishmasligi, muvozanat reaksiyalarining rivojlanmaganligi chap va o'ng yarimsharlarining yuqori ensa qismining zararlanishi bilan bog'lash mumkin. Xususan, chap ensa qismining zararlanishida chap va o'ng haqida tasavvurlar qiyinchilik bilan shakllanadi, keyinchalik esa, yozuv, o'qish va hisobni egallashda juda murakkab muammolar yuzaga keladi. Savod malakalarini egallashda muhim bo'lgan diqqat ham bu bolalarda o'ziga xos ko'rinish kasb etadi. Ko'ruv idrokining buzilishi nigoh qamrovining etishmasligi, ko'ruv o'tkirligining pasayganligi bilan bog'liq bo'ladi. Ko'z soqqalari xarakatchanligining buzilganligini ko'z soqqasini harakatga keltiruvchi mushaklardagi falajlanish bilan izohlash mumkin. Eshituv idrokining buzilganligi fazoviy gnozisning shakllanishida o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bunday sensor buzilishlar keyinchalik o'kuvchi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan topshiriqqa diqqatini jalb etishdagi muammolarga sabab bo'ladi.

Serebral falajlangan bolalarning intellektual rivojlanishi salbiy sharoitlarda kechganligi sababli ham aksariyat hollarda kechikadi yoki buzilgan bo'ladi. Bolalar serebral falajlanishida intellekt turlicha o'zgarganligini kurish mumkin: taxminan 30% bolalarda intellektning oligofreniya ko'rinishida o'zgarganligini ko'rsak, 25-30% bolalarda intellekt saqlangan bo'ladi, qolgan bolalarda esa, harakat, nutqiy hamda sensor kamchiliklar bilan bog'liq bo'lgan intellektual rivojlanishning kechikishni ko'ramiz. Ushbu muammolar maktab davrigacha ham to'liq bartaraf etilmay, bolada o'quv materialini egallash bilan bog'liq bo'lgan qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Alohida yordamga muhtoj, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar toifalariga nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ham kiradi. Ularning bilish faoliyati, intellekti, eshitish qobiliyati saqlangan holda, nutqning fonetik – fonematik, leksik yoki grammatik tomonidan ma'lum logopedik kamchiliklar kuzatiladi. Natijada 6-7 yoshga etganda ular savod o'zlashtirishga tayyor bo'lmaydilar. Umumta'lim maktabining boshlang'ich sinfida bunday bolalar ulgurmovchi bolalar orasiga qo'shilib qoladi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida idrok qilishga o'rgatish ishlari nafaqat nutq o'stirish mashg'ulotlarida, balki parallel ravishda qo'l mehnati, rasm, jismoniy tarbiya, tevarak atrofni o'rganish mashg'ulotlarida ham amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlarda bolalarning ko'rish, eshitish idrokini o'stirish ishlariga doir mashqlar didaktik o'yinlar o'tkazilishi lozim. Tayyorgarlik davri 4 hafta davom etadi. Bu davrda bolalarda asta-

sekinlik bilan soʻzlarda oddiy boʻgʻin tuzilishini tahlil qilishga tayyorgarligi tarbiyalanib boriladi (undosh, unli, undosh; undosh, unli, undosh, unli). Bu davrda soʻz tarkibidagi alohida tovush va tovush oʻqitishning asosiy birligini tashkil etadi. Tovushlarni nutqqa qoʻyish jarayonida, aniqlash, soʻng turli talaffuz etilgan tovushni mustahkamlash, eshitib qabul qilishni mustahkamlash maqsadida mashgʻulotlar olib boriladi. Bolalar tovushlarni ajratishni oʻrgandilar. Bunda eshitish xotirasi va nutqning tovushlar tomonidan diqqatning rivojlanishi roʻy beradi. Tayanch sifatida bolalar tovushlar analizi va sintezi ustida mashq qilib boradilar. 1-rejada – bolalarga soʻz tarkibidagi alohida bir tovushni eshitish va uning ketma-ketligini aniqlash vazifasi ilgari surilgan. Bolalar qiynalgan vaqtlarida oʻzlarining va logopedning artikulyatsiyasining koʻrib (oyna yordamida) qabul qiladilar.

Bolalar tomonidan egallangan fonematik analizning turli shaklini aniqlash ketma – ketligi ishlab chiqilgan boʻlib:

A) soʻz ichidan birinchi unli tovushni ajratish; Misol: “oʻrdak -oʻ”; bu soʻzda birinchi tovush “oʻ” tovush, “oʻroq-oʻ”, bu soʻzda ham birinchi tovush bu “oʻ” tovush.

B) 2-3 ta unli tovushlar qatorini aniqlash (a i u – bu yerda 3 ta unli tovush).

V) unli undosh tipidagi boʻgʻinni analiz va sintez qilish. Keyinchalik undosh tovushlar holatidan soʻng unli tovushlarni ajratish vazifalari taklif etildi. Shu vaqtning oʻzida bolalar asta-sekinlik bilan soʻz ichidan birinchi va oxirgi (soʻz ichidan undosh unli undosh tusidagi) undosh tovushni ajratish belgilarini egallab boradilar, undosh unli tusidagi boʻgʻinlarni tahlili va tarkib qilishni mashq qilib boradilar.

Tovushlarni aniq talaffuz etib va boʻgʻinlarni qayta ogʻzaki tahlil va tarkib qilishni egallaganlaridan soʻng fishkalar (qizil unli tovushlarni bildiruvchi, havorang yumshoq undosh tovushlarni bildiruvchi) va rezina alifbo harflari bilan mashq qiladilar. Bolalar boʻgʻinlarni tuzish va oʻqishni mashq qilib boradilar, keyinchalik – (ogʻzaki mashqlardan soʻng) talaffuzda boʻgʻinlarni toʻgʻri analiz va sintez qilishni oʻrganadilar. Bir vaqtning oʻzida fishkalar va rezinali alifbo harflari bilan mashq qiladilar – bolalarda boʻgʻinlarni toʻgʻri oʻqish tarbiyalanib boriladi. Nutq kamchiligiga ega bolalarni savod oʻrgatishga tayyorlash davrining oxirida bolalar undosh unli tusidagi boʻgʻinni toʻgʻri oʻqishni va unli unli undosh tusidagi boʻgʻinni oʻqib tahlil qilishni egallab boradilar. Bu davrda bolalar “tovush”, “boʻgʻin”, “soʻz”, “gap”, “unli tovush”, “undosh tovush” terminlaridan toʻgʻri foydalanishni oʻrganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga oʻrgatish 6 oy davom etadi. Bu davrda bolalar nutq bogʻchalarini savodga oʻrgatish dasturini umumlashtirilgan rejasi asosida savodni egallaydilar. Shu vaqtgacha egallangan bilimlarga – “jarangsiz tovush”, “jarangli tovush” terminlari qoʻshiladi.

Olingan hamma bilim va koʻnikmalar may oylarida mustahkamlanadi. Tayyorgarlik davrini uzoq davom etishiga qaramasdan, nutqida nuqsoni boʻlgan bolalarning normal bolalardan fonemalar tizimini toʻlaligicha shakllanmaganligi bilan shartli ravishda farq qiladi. Bunda maxsus metodik qoʻllanmalar va boshqa materiallardan keng foydalaniladi.

Nutq kamchiligiga ega boʻlgan bolalarni savod oʻrganishga tayyorlash davrining har bir etapida bajariladigan mashqlar soʻzlarni ogʻzaki tahlil qilishga qaratilgan. Asta sekinlik bilan tovush-boʻgʻin tarkibi murakkablashib boradi, koʻproq harflar bilan ishlashga jalb etiladi.

Artikulyatsiya jihatdan yaqin tovushlar (S-Sh, Z-S, P-B) bilan tanishish vaqtida imkoniyatlar koʻpayib boradi.

Yangi harflar bilan tanishish vaqtida oʻrganilayotgan tovushga yaqin boʻlgan harf mashgʻulot materiali sifatida vaqtinchalik chiqarib tashlanadi.

Masalan: “B” harfini oʻrganayotganda, nomida “P” harfi ishtirok etgan soʻz qoʻshilmaydi.

Guruhlarning imkoniyatlariga qarab, jarangli va jarangsiz tovushlarni bildiruvchi harflar bolalar tomonidan egallanadi.

Oʻqitishning boshlangʻich etapida soʻz ustida ish olib boriladi. Bolalar soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻlishni oʻrganadilar. Soʻzlarni bir qancha qismlarga boʻlishni bilib boradilar.

Oʻqitishning keyingi pogʻonasi – undosh unli, undosh unli va undosh unli undosh tipidagi tovush boʻgʻinni tahlil va tarkib qilishni egallaydilar. Soʻzning tovush tarkibi haqidagi bilimlari

bilan (o'qitishning tayyorgarlik davrida olingan bilimlar) so'zlarni bo'g'inlarga bo'lish bilimlari birlashadi.

Endi sxemada faqatgina so'z va bo'g'in emas, tovush o'z aksini topgan bo'ladi. Har bir bo'g'inda 1 ta unli tovush borligini bilib boradilar. So'zlarni tovush bo'g'inga tahlil qilishda turli xil mashqlardan foydalanadilar.

Bolalar sxemaga so'zni joylashtirishni mashq qiladilar, so'ng ko'rsatkich bilan birma – bir ko'rsatib, sxemadagi so'zlarni o'qiydilar. Harflar bilan tanishtirishda tovushlarni bildiruvchi fishkalardan foydalanadilar. So'zlarni o'qishni mashq qiladilar. O'qitish tizimida ma'lum bir so'zlarni o'qish alohida o'rin tutadi. Alifbegacha davrning birinchi 8 ta mashg'ulotlari alohida so'zlarni o'qish va tahlil qilish ko'nikmalari tarbiyalanib boradi.

Dizartrik bolalarning motorik holatlarini tadqiq qilish davomida (Laurense, Zhogger) bolalarda serebrastenik holatlardagi og'ir holat tufayli kamchiliklarning mavjudligi hamda ular normal rivojlanayotgan bolada mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan motorik holdagi ayrim noto'ksilikdan o'zining murakkab ko'rinishi hamda korreksiyaga qiyin berilishi bilan farqlanganligi e'tirof etilgan. Ushbu tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar davomida bolada uzoq vaqt davomida yetakchi qo'lini aniqlashning imkoni bo'lmaydi. Bola har ikkala qo'li bilan ham yaxshi va maromida harakatlana olmaydi. Ular orasida nisbatan yetakchi funksiyasini aniqlash shuningdek bolaning sog'lom hamda falajlangan qo'lga nisbatan aniqlanadi. Yozuv malakalarini egallashi lozim bo'lgan dizartrik bola (agar bu yengil ko'rinish bo'lmasa) umum barmoqlar faoliyatini boshqarish hamda to'g'ri yo'nalish bera olishga qaratadi. Harakatlarning notekisligi va juda keskin hamda sustligi bolaning ko'nikmalarni o'z vaqtida egallashdan mahrum qiladi. Tadqiqotchilar fikricha ayni damda bolaning barmoqlar harakatini oshirilishi o'z-o'zidan bolaning umum holati hamda ta'limiy jarayon samarasiga ham ta'sirini ko'rsatadi.

Nutqiy holatning zaifligi, leksik qurilmaning torligi bolaning bayon qila bilish holatiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. So'z interpretasion holatlari dizartrik bolaning nutqida juda kam uchrab, o'z navbatida lug'at tajribasining faolsizligi bolaning bog'langan nutqida umum astenik holatga olib keladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, dizartrik bolaning savodni egallash jarayoni o'z normal tengdoshlarga nisbatan bir muncha murakkab va o'ziga xos ko'rinish kasb etadi.

O'qitishning tayyorlov davrining keyingi bosqichlari avvalgi bosqichlariga nisbatan murakkabroq bo'g'inli so'zlar kiritiladi. Bunda yangi tizim so'zlarni og'zaki tahlili, "Tovushlar talffuzi" mashg'ulotlarida to'ldirib boriladi. Masalan: "Sh" tovushini egallaganda, bolalar ush ui ush ush ui tusidagi so'zlarni aniq talaffuz etish va tahlil qilish ustida mashq qiladilar (pashsha, shoshma va boshqalar).

Biz quyida mashg'ulot ishlanmasini keltirib o'tmoqchimiz.

1-mashg'ulot ishlanmasi.

Mavzu: "O o" tovushi va harfi bilan tanishtirish

Maqsad:

Ta'limiy maqsad: bolalarga unli tovushlardan "O" tovushi va harfi haqida tushuncha berish.

Uning artikulyasiyasi, talaffuz qoidalarini bolalarga tushuntirish, so'zlarning boshida, o'rtasida va oxirida kelishini tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: mashg'ulot vaqtida to'g'ri o'tirish, chiroyli va to'liq javob berishga o'rgatish.

Korreksion maqsad: bolalardagi diqqat, xotira, nutqni, lug'at boyligini, tafakkurini boyitish.

Kerakli jihozlar: "O" tovushiga oid rasmlar, shartli belgilar.

I.Tashkiliy qism

- Salomlashish.
- Ob-havo, yil fasllari, tabiat o'zgarishlari haqida so'rash.

“Barmoqlar” ertagi.

Bolalar sizlar bilan nutqimizdagi 2 xil tovushlar haqida gaplashgan edik. Qani eslab olamiz. Bular qaysi tovushlar edi? (unli, undosh). Bolalar bilan ularni sxemadagi belgilari ham qaytariladi.

II. Mashg'ulotning borishi.

- Bugun bolalar sizlar bilan (nutqimizdagi 2 xil) unli tovush va harf bilan tanishamiz. Ya'ni “O o” tovushi va harfi haqida. Bolalarga “O o” harfi ko'satiladi.

- Qani hammamiz birma – bir “O-o-o” deymiz. (Hamma talaffuz etadi).

O o tovushini talaffuz etganimizda quyidagilar sodir bo'ladi.

A) lablar tinch holatda.

B) tishlar orasidagi masofa 2.5-3 sm.

V) tish tinch holatda.

G) lablar, og'iz dumaloq ochiq holatda.




- Talaffuz qilayotganimizda hech qanday to'siqqa uchramayapti, cho'zib aytamiz. Demak, bu qanday tovush.

- Unli.

- Qani endi bolalar hammamiz “O o” tovushi va harfi bilan boshlanadigan so'zlarni topamiz.

Masalan: Olmaxon, ot, osmon...

Endi o'tilgan belgilarni qaytarib olamiz.




Xoy olma, olma,
Meni ovvora qilma.
Bir oz egil bo'y cho'zay,
Olmalaringdan uzay.

IV. Mustahkamlash.

Bolalar endi dam olib bo'ldik. Hozir sizlar bilan “O o” tovushi va harfini so'zlarda o'rganamiz.

Sizlar bilan birgalikda shartli belgilar bilan ishlaymiz



Rasmlar asosida ishlaganda, avval so'z boshida kelgan rasmlarni ko'rsatib, sxemasi chizib boriladi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nutq kamchiligiga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rganishga tayyorlash murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u bolalarning sensor, motor, nutqiy va intellektual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Dizatriya va serebral falaj holatlarida uchraydigan fazoviy gnozis, fonematik idrok hamda ko'ruv-motor koordinatsiyasidagi buzilishlar savod o'zlashtirishda sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan

logopedik va korreksion ishlar tizimli, izchil hamda fanlararo yondashuv asosida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, ularni eshitib farqlash, bo'g'in va so'zlarni tahlil qilishga qaratilgan mashg'ulotlar bolalarning savodga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Natijada, maxsus metodik yondashuvlar asosida olib borilgan ta'lim-tarbiya jarayoni nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayupova, M. Yu. Logopediya / M. Yu. Ayupova. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati nashriyoti, 2022. – 320 b.
2. Logopediya: darslik / A. S. Volkova tahriri ostida. – Moskva: VLADOS, 2003. – 480 b.
3. D'yakova, E. A. Logopedik massaj turli dizartiya shakllarida: oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma / E. A. D'yakova. – Moskva, 2012. – 134 b.
4. Lalaeva, R. I. Logopatopsixologiya: talabalar uchun o'quv qo'llanma / R. I. Lalaeva, S. N. Shaxovskaya. – Moskva: Gumanitar nashriyot markazi VLADOS, 2013. – 464 b.
5. Lobanova, N. N. Qo'l barmoqlarining mayda motorikasi bolalar nutqi rivojlanishiga ta'siri / N. N. Lobanova // Yosh olim. – 2014. – № 20. – B. 595–596.
6. Lopatina, L. V. Maktabgacha yoshdagi bolalarda minimal dizartik buzilishlar bilan logopedik ish : o'quv qo'llanma / L. V. Lopatina; E. A. Loginova tahriri ostida. – Sankt-Peterburg : Soyuz nashriyoti, 2005. – 192 b.
7. Lopatina, L. V. Yozuvni o'zlashtirishga tayyorgarlik: didaktik qo'llanma (bolalarda ko'ruviy-fazoviy funksiyalar va grafomotor ko'nikmalarni rivojlantirish uchun): 2-jild / L. V. Lopatina, E. A. Loginova, V. I. Lipakova. – Sankt-Peterburg: Korona.Vek, 2011. – 32 b.